

OILA JAMIYAT POYDEVORI



S.B.NORBOYEVA

“STARS International University”,
buxgalteriya va audit yo‘nalishi
talabasi

ILMIY RAHBAR: PHD,

E.T.SHODIEV,

“STARS International University”

Ilmiy kengash ilmiy kotibi

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp168-170>

Annotatsiya: Maqolada oilaning jamiyatdagi o‘rni, uning rivojlanishidagi ta’siri, oilalar mustahkamligidagi kamchiliklar, mamlakat miqyosida amalga oshirilgan chor- tadbirlar ilmiy tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: oila, jamiyat, taraqqiyot, shaxs, inson.

KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan farmonlar-farmoyishlar, qabul qilingan qarorlar hech biri bugunga qadar jamiyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oilalarni chetlab o‘tgani yo‘q. Nega jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida oila kamol topib har bir shaxsni voyaga yetkazib jamiyat a‘zolaridan biriga aylantirar ekan, u shaxsning ongi, mafkurasi, qarashlari bari-bari o‘sha oilaning ta’sirida, uning nazoratida shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili. Oila va jamiyat muammolari milliy va xorijiy olimlar tomonidan keng qamrovli tadqiq etib kelinmoqda. Shu o‘rinda aytish kerakki Iyanla Vanzat tili bilan aytganda “Oila doirasi bizning xavfsiz panohimiz bo‘lishi kerak, Ammo biz ko‘pincha eng ko‘p og‘riqni topadigan joy ham oila bo‘lishi mumkin”, ming afsuski bugun jamiyatimizda oila qadrini, ota-ona, farzand mehrini hali-hanuz his qilib o‘z baxtini anglay olmagan qo‘shirnoq ichidagi jamiyatni, millatni botqoqqa yetaklaydigan oilalar haligacha bor.

Sevara Ishmurotova o‘zining “Oila – davlat va jamiyatning poydevori” nomli maqolasida quyidagi fikr-mulohazalarni bayon etgan: “Ma’naviy jihatdan bir-biriga sabr qilish lozim bo‘lganiday, moddiy jihatdan ham qanoatli va sabrli bo‘lish juda muhimdir. Oilaning tinch, farzandlarning baxtli bo‘lishligida er-xotinning har ikkisi ham oiladagi o‘z burchlarini astoydil ado etishga intilishlari muhimdir. Mustahkam va saodatli oilada er-xotin o‘zaro totuv yashashi bir-birining yaxshi va yomon jihatlari ko‘tarishi, ayb va kamchiliklarini kechirishi, tinch va totuv yashashi lozim”.

Oilada erkak kishining mas’uliyati alohida qayd etilgan. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas go‘sha sanalgan. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla-yurt mustahkam

bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Oila farovonligi – milliy farovonlik asosidir.

Karomat Axtamova o'zining “Oila - muqaddas dargoh” nomli ilmiy maqolasi-da quyidagi fikr-mulohazalarni bayon etgan: Oila jamiyatning muqaddas maskani, eng asosiy tarbiya makonidir. Oiladagi ota ibrati, ona mehri, bobo va buvilar o'gitalari orqali milliy qadriyatlarimizga bo'lgan imon-e'tiqod, halollik, mehr-oqibat avloddan avlodga o'tadi, farzandlarimiz ongi va qalbida muhrlanib boradi. Iqtisodiy jihatdan farovon, ijtimoiy-axloqiy va g'oyaviy muhiti sog'lom oila negizida yuzaga kelgan jamiyat va davlatning poydevori mustahkam bo'ladi. Chunki bunday oilalarda ma'naviy barkamol inson voyaga yetadi, uning his-tuyg'ulari, dunyoqarashi, tafakkuri el-yurtga halol xizmat qilishdek insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan.

O'zbeklarda oilaning rahbari ota hisoblanib, u oilani moddiy jihatdan ta'minlashga mas'uldir. Otaning rahbarligi to'g'risida Qur'oni karimda “Erkaklar xotinlari ustidan rahbardurlar” deyilgan. Oyati mohiyatini tahlil qiladigan bo'lsak, oiladagi moliyaviy masalalar, chetdan bo'ladigan xurujlardan uni himoya qilish otaga yuklatilmoqda. Nafaqat rahbar, balki ota-oila posboni. Ota bor xonadon charog'on, bolalar yuzida tabassum, ona qalbida osoyishtalik. Oilada ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqaror bo'lib turishida, farzand tarbiyasida onaning, ayolning o'rni beqiyos. Farzandlarimizning oilada shakllangan imon-e'tiqodi, odobi, g'ururi, iftixori, oriyati, mahalla muhitida mustahkamlanib boradi. Oilada imon-e'tiqodli oriyatli etib tarbiyalangan qiz yoki o'g'il mahallaning sha'ni, obro'si, kelajagi uchun qayg'uradi. Mahallada yuzaga kelgan har qanday noxushliklarga barham berishga intiladi.

Tahlil va natijalar. Birgina mamlakatimiz miqyosida 10.000 dan ortiq notinch oilalar mavjud ekan. O'g'riqli bo'lsa-da siz-u biz javob topishga qiynaladigan oilalardagi muammolar yechimini kutayotgan savollar talaygina. Misol tariqasida ota-onalar bir-birini tushunmasa, qanday farzandlariga o'zida yo'q bo'lgan mehrni berib ularni bir-birlariga, insonlarga bo'lgan mehrni shakllantira oladi. Judayam ko'p jamiyatimizda bu kabi javobsiz savollar. Xatto inson ko'ngli aynir darajadagi millatchiligimiz, dinimiz milliy mafkuramizga zid bo'lgan G'arb madaniyatidagi, hatto musulmon oilalaridan chiqqan qizlar tabiatidagi kashandalikmadaniyatimizga zid keladigan qo'shtirnoq ichidagi yoshlar tomonidan qo'llanilayotgan jargon so'zlar tilimizdagi, internetdan foydalanish madaniyati behayo videolardan tortib bari-bari qaysi oila boshi qanday oilalarda tarbiya topgan qo'pol qilib aytganda qaysi manqurt inson nomi bilan ataluvchilardan chiqyapti deysiz. Albatta oila bosh bo'lmas ekan, ota otaligini, ona onligini his qilmas ekan, biz yuzaki aytib o'tgan ammo eng og'riqli nuqtamiz hisoblangan bu kamchiliklar hech qachon tugamaydi.

Inson yashar ekan ,sevsin-sevilsin.
Ba'zan qayg'ulardan shodlik yaratsin.
Bolam deb, chaqam deb yelib-yugurib,
Foniy bu dunyodan baxt ila.

Xulosa va takliflar

Har bir oila eng avvalo sevgi, mehr -muhabbat bilan har tomonlama o'ylab mustahkam qurilar ekan, uning poydevorini hech kim, hech bir kuch, hech qaysi tahdid buzolmaydi. Har qaysi inson butun kuchini energiyasini o'zini baxtli deb hisobla-

gan oilasidan oladi. Li Yakoka aytganidek, „Oila men biladigan yagona mustahkam poydevordir. Shuningdek, men biladigan yagona haqiqiy muassasa bu –Oila. Shunday ekan, jamiyatimiz poydevori bo‘lgan oilalarimizga doim e’tiborli bo‘laylik. Bugungi kunda mamlakatimizda 15 milliondan ortiq namunali oilalar mavjudligi, shu bilan birga 4343 ta nochor oilalarga asosiy muammolarini hal etishda ko‘mak ko‘rsatilayotganligi aslida jamiyatimizdagi oilalar mustahkamligini ta’minlash uchun qilinayotgan sa’y-harakatlar isbotidir. Albatta buyuk tariximizdan, tamomila sharqona qarashlarimiz bilan rang-barang tus olgan mehr -muhabbat o‘chog‘ini o‘zida aks etgan mustahkam oilalarimiz bor ekan O‘zbekistonimiz rivojlanishda davom etib taraqqiyot cho‘qqisiga chiqa oladi deb ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sevara Ishmurotova. Oila – davlat va jamiyatning poydevori. <https://pravacheloveka.uz/oz/news/m7576>
2. Karomat Axtamova. Oila muqaddas dargoh. <http://hazratnavoi.uz/maqolalar/4114-oila-muqaddas-dargoh.html>